

“SavingId”-sonli MILLIY VALYUTADAGI MUDDATLI TO‘LDIRILADIGAN OMONAT SHARTNOMASI (qisman yechib olish imkoniyatisiz)

Toshkent sh

“Date”

“TBC Bank” ATB (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb nomlanadi) “DisbursementResponsiblePerson” nomidan Ustav asosida ish yurituvchi, bir tomondan va “FullName” keyingi o‘rinlarda “Omonatchi” deb nomlanadi (JShShIR: “PINFL”, tug‘ilgan kun: “birthdate”) ikkinchi tomondan, birgalikda “Tomonlar” deb nomlanadi, mazkur milliy valyutada muddatli omonat hisobvarag‘i bo‘yicha Shartnomani (keyingi o‘rinlarda “Shartnoma” deb nomlanadi) quyidagilar haqida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1. Mazkur Shartnoma Omonatchi tomonidan “TBC Bank” ATBning mahsulot va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlarga (keyingi o‘rinlarda “BSh”), ushbu Shartnomaning shartlariga rozilik bildirish va bank hisobvaraqlarini ochish hamda xizmat ko‘rsatish va boshqa bank mahsulotlarini va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Ariza/So‘rovni imzolash/qabul qilish orqali tuziladi. Omonatchi uchun masofadan turib muddatli omonat hisobvarag‘ini ochish (20606) va unga Omonatchining mablag‘larini kiritish rozilikni ifodalaydi. Shartnoma muddatli omonat hisobvarag‘iga mablag‘lar kelib tushgan sanadan boshlab tuzilgan hisoblanadi.
- 1.2. Mazkur Shartnoma BSh va Ariza/So‘rovning ajralmas qismidir.
- 1.3. Ushbu Shartnomada foydalanilgan atamalar va ta’riflar BShda ko‘rsatilgan.

2. SHARTLAR, PUL MABLAG‘LARINI JOYLASHTIRISH VA QAYTARISH

- 2.1. Omonatchi mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq pul mablag‘larini kiritadi, Bank esa Omonatchidan pul mablag‘larini qabul qilib, omonat summasini va hisoblangan foizlarni mazkur Shartnomada belgilangan tartibda hamda shartlar asosida qaytarish majburiyatini oladi.
- 2.2. **Shartnoma shartlari:**
 - 2.2.1. Foiz stavkalari: “InterestRate” yillik;
 - 2.2.2. Omonat muddati (oylar soni): “Terms”;

- 2.2.3. Muddatli omonat ochish uchun minimal summa: Ushbu turdagi omonat uchun Bankning Tariflariga ko'ra;
 - 2.2.4. Maksimal summa: Ushbu turdagi omonat uchun Bankning Tariflariga ko'ra;
 - 2.2.5. Qo'shimcha to'lovlar: Bankning ushbu omonat turi bo'yicha tariflariga muvofiq;
 - 2.2.6. Pul mablag'larini qisman yechib olish: ko'zda tutilmagan;
 - 2.2.7. Omonatni muddatdan oldin to'liq yopish quyidagi shart bilan ko'zda tutilgan, agar Omonatchi masofaviy bank xizmatlarini taqdim etish tizimi orqali O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksining 762-moddasiga muvofiq belgilangan muddat ichida o'z niyati haqida xabar bersagina. Bank Omonatchining so'roviga muddatidan oldin javob berish huquqiga ega. Shu bilan birga, hisoblangan va to'langan foizlarni quyidagi stavkalar bo'yicha qayta hisoblaydi: "PenaltyRates". Foizlar bo'yicha ortiqcha to'langan summa Bank tomonidan asosiy omonat summasidan ushlab qolinadi;
 - 2.2.8. Agar omonat muddatidan oldin yopilganda ushlab qolinishi lozim bo'lgan hisoblangan va to'langan foizlar summasi omonatdagi qoldiq summadan ko'p bo'lsa, omonat muddatidan oldin yopilishi mumkin emas;
 - 2.2.9. Agarda Omonatchi ushbu omonat mahsuloti doirasida Bankdan qo'shimcha mukofotlar (shu jumladan, keshbek) yoki boshqa har qanday rag'batlantiruvchi to'lovlarni olgan bo'lsa, Bank ushbu bandning birinchi xatboshisida ko'zda tutilgan summalarini ushlab qolish bilan birga, mazkur Shartnoma tuzilganidan so'ng Bank Tariflari va rag'batlantiruvchi aksiyalar shartlariga muvofiq to'langan barcha qo'shimcha mukofotlar (keshbeklar) summalarini ushlab qoladi;
 - 2.2.10. Operatsiyalarni amalga oshirish jarayoni ishtirokchilaridan birida texnik nosozlik yuzaga kelib, tizim vaqtincha ishlamay qolgan hollarda ushbu omonat bo'yicha qo'shimcha mablag'lar kiritish va to'liq muddatidan oldin yopish hamda boshqa operatsiyalar amalga oshirish imkoniyati bo'lmasligi mumkin;
 - 2.2.11. Foizlarni kapitallashtirish: Bankning ushbu omonat turi bo'yicha Tariflariga muvofiq.
- 2.3. Ushbu shartnomani qabul qilish orqali Omonatchi Bank tomonidan ushbu bank mahsuloti bo'yicha taklif etiladigan Tariflar va shartlarga rozilik bildiradi.
 - 2.4. Muddatli omonat hisobvarag'iga kelib tushayotgan pul mablag'lari shu kunning o'zidayoq kirim qilinadi.
 - 2.5. Omonat muddati tugagach, pul mablag'lari faqat naqd pulsiz shaklda, Bankning ixtiyoriga ko'ra, Bankda ochilgan istalgan hisobvaraqqa yoki bank kartasiga yoxud virtual kartaga o'tkaziladi.
 - 2.6. Omonatchining omonati muddatidan oldin yopilganda pul mablag'lari faqat naqd pulsiz shaklda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan muddatda Bankda

ochilgan istalgan hisobvaraqa yoki bank kartasiga yoxud Bankning virtual kartasiga o'tkaziladi.

- 2.7. Agar TBC UZ mobil ilovasida "avtomat ravishda uzaytirish" tugmasi yoqilgan bo'lsa, shartnoma omonat yangilangan kuni mahsulot tariflarining amaldagi shartlariga muvofiq avtomat ravishda yangilanadi. Agar Omonatchi omonat muddatini uzaytirishni istamasa, "avtomat ravishda uzaytirish" tugmasi omonat muddati tugashidan kamida 1 hafta oldin Omonatchi tomonidan o'chirilishi kerak. Agar Bank Omonatchi bilan shartnoma tuzilgan depozit mahsulotini yopishga qaror qilsa, "avtomat ravishda uzaytirish" tugmasi faollashtirilganidan qat'i nazar, Shartnoma bekor qilinadi.
- 2.8. Soliq rezidenti maqomiga ega bo'lmagan O'zbekiston Respublikasining Omonatchi-norezidentlaridan omonat bo'yicha to'lanadigan foizlar (daromadlar) summasidan hamda istalgan hisobvaraqlardan akseptsiz tartibda va keyinchalik budjetga o'tkazgan holda O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi talablariga muvofiq Bank tomonidan to'lovlar manbaidan soliq ushlab qolinadi.
- 2.8.1. Omonatchi soliq rezidenti maqomini olgan taqdirda, Omonatchi BShda kelishilgan aloqa kanallari orqali Bankni bunday o'zgarish haqida xabardor qilish majburiyatini oladi.
- 2.9. Muddatli omonatga qabul qilingan pul mablag'larining qaytarilishi O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-1031-sonli Qonuniga muvofiq Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash jamg'armasi tomonidan kafolatlanadi.

3. FOIZLARNI HISOBLASH VA TO'LASH

- 3.1. Foizlar har kuni, omonat hisobvarag'idagi eng kam qoldiq summasiga hisoblanadi. Bunda bir operatsion kun davomida amalga oshirilgan barcha tranzaksiyalar inobatga olinadi. Foizlar Omonatchining muddatli omonat hisobvarag'iga pul mablag'lari kelib tushgan kunning ertasidan boshlab, ular Omonatchiga qaytariladigan yoki boshqa asoslarga ko'ra hisobvaraqdan to'liq yechib olinadigan kundan oldingi kunga qadar hisoblanadi.
- 3.2. Foizlarni to'lash: Ushbu turdagi omonat uchun Bankning Tariflariga ko'ra.
- 3.3. 29.09.2023 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3460 "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risidagi" Nizomga muvofiq Omonatchi hisobida omonat haqiqatda joylashtirilgan kalendar kunlarning soni asos qilib olinadi. Shu bilan birga, hisob-kitob qilinadigan kunlar soni bir yilda 365 kun deb olinadi.

4. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

4.1. Omonatchi huquqlari:

- 4.1.1. Bankdan muddatli omonatni to'liq talab qilish;

- 4.1.2. Muddatli omonat hisobvarag'ini qo'shimcha pul mablag'lari bilan to'ldirish;
- 4.1.3. Mazkur omonat turi bo'yicha Bank Tariflariga muvofiq muddatli hisobvaraqlarning maksimal sonini ochish.

4.2. **Omonatchi majburiyatlari:**

- 4.2.1. Mazkur Shartnoma shartlari bilan tanishib chiqish;
- 4.2.2. Hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni ushbu shartnomaga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa vakolatli organlarning me'yoriy hujjatlariga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshirish. Omonatchi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida hisobvaraqlar ochish uchun taqdim etiladigan hujjatlar va ma'lumotlarning ishonchliligi uchun javobgardir;
- 4.2.3. Hisobvaraqlarga mablag'lar xato kiritilgani va/yoki hisobdan yechilgani aniqlangan taqdirda, bu haqda Bankka har qanday qulay usulda zudlik bilan xabar berish lozim. Xato kiritilgan pul mablag'laridan shaxsiy maqsadlarda foydalanmaslik va ularni darhol Bankka qaytarish uchun barcha choralarni ko'rish zarur. Omonatchi tomonidan xato o'tkazilgan pul mablag'lari noqonuniy ushlab qolinsa, Bank O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan choralarni ko'radi;
- 4.2.4. BSHda kelishilgan aloqa kanallari orqali 3 (uch) kalendar kun ichida Bankni o'z manzili va/yoki telefon raqamlari, jumladan, mobil telefon raqami, familiyasi, ismi yoki otasining ismi o'zgarganligi, shaxsini tasdiqlovchi hujjati yoki mazkur shartnomaning bajarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa hujjatlar almashtirilganligi to'g'risida xabardor qilish.

4.3. **Bank huquqlari:**

- 4.3.1. Tegishli davlat organlaridan ijro hujjatlari kelib tushgan taqdirda, Omonatchining e'tirozlaridan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko'rish (pul mablag'lariga taqiq qo'yish, pul mablag'larini akseptsiz hisobdan chiqarish, hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish va boshqalar), shuningdek Omonatchining hisobvaraqlari bo'yicha pulni qabul qilish (kirim qilish) xatoligi fakti aniqlanganda qaytarish uchun muddatli omonat hisobvarag'i bo'yicha hisoblangan va to'langan mukofotni akseptsiz hisobdan chiqarish;
- 4.3.2. Bank yangiliklarini, shuningdek, Omonatchining muddatli omonat hisobvarag'idan amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni arizada/buyurtmanomada ko'rsatilgan Omonatchining mobil aloqa raqamiga SMS/push-xabarlar ko'rinishida yoxud ko'rsatilgan elektron pochta manziliga jo'natmalar sifatida yuborish;
- 4.3.3. Jinoyatchilik yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi harakat etish maqsadida, Bank Omonatchidan uning

muddatli omonat hisobvarag‘i bo‘yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarni qonuniyligini tasdiqlovchi ma‘lumot va hujjatlarni taqdim etilishini talab qilish huquqiga ega;

- 4.3.4. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida hamda jinoyatchilik faoliyati va terrorizmni moliyalashtirishdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan holatlarda muddatli omonat hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni va foizlar hisoblanishini to‘xtatib turish yoki ularni amalga oshirishdan bosh tortish;

4.4. **Bank majburiyatlari:**

- 4.4.1. Muddatli omonat hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini va hisoblangan foizlarni Omonatchiga mazkur Shartnomada belgilangan tartib va shartlarga muvofiq qaytarish;
- 4.4.2. Hisobvaraqdagi pul mablag‘larining xavfsizligini va yaxlitligini ta‘minlash. Hisobvaraqdagi mablag‘larni xatlash yoki hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatish O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan holatlardagina amalga oshiriladi.

5. **BANK SIRI**

- 5.1. Bank O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri”, BSh va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq bank sirini tashkil etuvchi Omonatchi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar maxfiyligi va saqlanishini kafolatlaydi.
- 5.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlarni Bank Omonatchiga yoki uning vakolatli vakiliga uning (yozma ravishda yoki elektron ko‘rinishda taqdim etilgan va Omonatchi ma‘lumotlarini to‘liq identifikatsiyalashtirganidan so‘ng) so‘roviga muvofiq taqdim etishi mumkin.
- 5.3. Bank sirini tashkil etuvchi Omonatchi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar uchinchi shaxslarga O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

6. **TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI**

- 6.1. Tomonlar o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun, BSh va mazkur Shartnomani bajarmagan Tomon O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgardir.
- 6.2. Mazkur Shartnomaning shartlariga rozilik berib, Omonatchi u tomonidan joylashtirilgan pul mablag‘lari qonuniy manbaga egaligini hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadni qonuniylashtirish jarayoniga, terrorizmni va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatish uchun moliyalashtirish jarayonlariga jalb qilinmaganligini kafolatlaydi.

- 6.3. Bank Omonatchi tomonidan amalga oshirilgan operatsiyaning qonuniyligi yozma ravishda tushuntirilgunga qadar ushbu xizmatni ko'rsatishni to'xtatib turish yoki Omonatchi tomonidan muddatli omonat hisobvarag'idan foydalangan holda amalga oshirilgan shubhali operatsiyalar aniqlangan taqdirda ushbu xizmatni ko'rsatishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

7. ALOHIDA SHARTLAR

- 7.1. Bank tomonidan olingan shaxsiy ma'lumotlar quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi va foydalanilishi mumkin:
- 7.1.1. Omonatchi foyda oluvchi yoki manfaatdor shaxs bo'lgan shartnomalarni tuzish va bajarish;
 - 7.1.2. Omonatchining huquqlari va majburiyatlarini lozim darajada bajarilishini ta'minlash;
 - 7.1.3. Ma'lumotlarni tekshirish, shu jumladan firibgarlik bilan bog'liq operatsiyalarga yo'l qo'ymaslik maqsadida;
 - 7.1.4. Shartnomalarni bajarish bilan bog'liq ma'lumotlarni, uchinchi shaxslarning qo'shma dasturlarida (sodiqlik dasturlarida) ishtirok etuvchi uchinchi shaxslarning ma'lumotlari va axborotlarini Omonatchiga yetkazish;
 - 7.1.5. Sug'urta, pochta tashkilotlariga, aloqa tashkilotlariga taqdim etish;
 - 7.1.6. Bank tomonidan statistik va/yoki marketing tadqiqotlarini o'tkazish va/yoki Omonatchini Bankning yangi mahsuloti va xizmatlari hamda Bank hamkorlari haqidagi ma'lumot to'g'risida xabardor etish;
 - 7.1.7. Muddati o'tgan qarzdorliklarni undirish maqsadida davlat va boshqa tashkilotlarga taqdim etish;
- 7.2. Omonatchi muddatli omonat hisobvarag'idagi pul mablag'larini mustaqil ravishda o'z ixtiyoriga ko'ra boshqaradi, BSh, mazkur Shartnomada hamda amaldagi qonunchilikda belgilangan holatlar bundan mustasno.
- 7.3. Bank Omonatchining pul mablag'laridan foydalanish usulini belgilash va nazorat qilish, shuningdek, pul mablag'laridan foydalanish va ularni boshqarish bo'yicha Omonatchini huquqlariga nisbatan cheklovlarni belgilash huquqiga ega emas.
- 7.4. Shartnomada belgilanmagan Bank va Omonatchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar BSh hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq tartibga solinadi.
- 7.5. Tomonlar uchun Omonatchining hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Makraziy bankining normativ va huquqiy hujjatlari asosida belgilanadi va har ikki Tomon uchun majburiydir.

8. MUDDATLI OMONAT HISOBVARAG'INI YOPISH VA SHARTNOMANI BEKOR QILISH TARTIBI

- 8.1. Omonatchining ixtiyoriga ko'ra yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ushbu Shartnomaning bekor qilinishi muddatli omonat hisobvarag'ini yopish uchun asos hisoblanadi.
- 8.2. Shartnoma akseptlangan paytdan e'tiboran kuchga kiradi, muayyan muddatga tuzilgan bo'lib, ushbu Shartnomaning 2.2.2-bandida ko'rsatilgan muddatgacha yoxud Omonatchining tashabbusi bilan istalgan vaqtda bekor qilinmaguncha amal qiladi. Shuningdek, Shartnoma Omonatchi o'z zimmasiga olgan shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaganligi sababli yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda Bankning talabiga ko'ra sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.
- 8.3. Barcha o'zgarishlar va qo'shimchalar mazkur Shartnomaga BShda ko'rsatib o'tilgan tartibda kiritiladi.